

SOTSIAL PSIXOLOGIYADA OILA MUAMMOSI

Boboxolova Shahnoza Akrom qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Amaliy psixologiya ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

bobokholovashakhnoza@gmail.com

Qo‘chqorova Dilnoza Sherboboyevna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Amaliy psixologiya ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oila va nikoh, ularning kelib chiqishi, ya‘ni yaratilish tarixi, oilaviy vaziyatlar va undagi hayot-mamot, turmush masalalari, oila a‘zolari va ular o‘rtasida uchrab turadigan turli nizolar, kelishmovchiliklar, tortishuvlar, muammolar, ajrim holatlari va bu vaziyatlardan qanday qilib chiqish lozim ekanligi, muammolarni yechish usullari, yo‘llari, bu borada psixologlarning o‘ziga xos tavsiyalari to‘g‘risida batafsil yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, nikoh, turmush, ajrim, inqiroz, muammo, yechim, sotsiologiya, psixologiya, jamiyat, islohot, ijtimoiy birlik, munosabat, maskan.

ABSTRACT

In this article, the family and marriage, their origin, ie the history of creation, family situations and life and death in it, marriage issues, family members and various conflicts, disagreements, disputes, problems, rulings between them. There is a detailed description of the situation and how to get out of these situations, ways to solve problems, specific recommendations of psychologists in this regard.

Keywords: Family, marriage, marriage, divorce, crisis, problem, solution, sociology, psychology, society, reform, social unity, relationship, place.

KIRISH

Biz bilamizki, odamzot paydo bo‘lganidan tortib to hozirgi kunga qadar oila muqaddas qo‘rg‘on, tarbiya o‘chog‘i, madaniyat va ma‘rifat maskani sifatida e‘tirof etib kelinmoqda. Shunga ko‘ra, oila ijtimoiy institutlarning eng qadimgisi sanaladi. Insoniyat boshidan kechirgan turli tarixiy davrlar qanchalar turfa xil va murakkab bo‘lishiga qaramasdan o‘zining kuch-qudrati, sabr-toqati bilan qiyinchiliklarni yengib o‘tgan jamiyatning bo‘g‘inidir. Ayniqsa, XIX asrning oxiri XX

asrning boshlarida ro'y bergan buyuk o'zgarishlar, islohotlarga dosh bera olgan, sog'omon chiqa olgan ushbu maskan o'zining tarkibi, tuzilishi, tarixi, jamiyat oldidagi muayyan majburiyatlari va vazifalari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tashkil topgan tuzilma hisoblanadi. Oilani insoniyat tashkil qiladi. Oiladagi hayot-mamot masalalari, a'zolar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil topishini hisobga oladigan bo'lsak, bu yerni tom ma'noda, chinakamiga sof psixologik jarayonlar maskani deb yuritishimiz mumkin. Oila- bu o'ziga xos ijtimoiy birlik bo'lib, unda er va xotinning o'zaro ittfoqi, maishiy hayot birligi, axloqiy va huquqiy birligi, ota-onalarning farzandlar oldidagi muayyan majburiyatlari, burchlari, vazifalari va o'z navbatida farzandlarning ham ota-onalari oldidagi burchlardan tashkil topadi. Shu o'rinda aytishimiz mumkinki, oila jamiyatning bir bo'lagi sifatida e'tirof etilar ekan, uning jamiyat oldidagi muayyan majburiyatlari va vazifalari haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ular quidagilardan iborat:

- Har bir inson o'z oilasining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishi bilan bir qatorda, jamiyat va davlatning ehtiyojlarini qondiruvchi yetuk shaxs sifatida o'z faoliyatini olib borishi;
- O'z yurti uchun munosib bo'lgan sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishi, uning ilm olishi, kamolga yetishi uchun shart-sharoitlarni yaratib berishi;
- Bog'-u rog'lar, inshootlar, binolar bunyod etishi;
- Doimo xalq xizmatida kamarbasta bo'lib, yaxshi- yomon kunlarda yonida turishi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Shu jihatdan olib qaraganda Xitoy ta'lim tizimiga nazar solmoqlikni joiz deb bildik. Unga ko'ra, „Buguningni o'ylasang bug'doy ek, ertangni o'ylasang daraxt ek, kelajagingni o'ylasang ilm ol”⁵¹. Oila borasida chet el psixologlari juda ko'plab izlanishlarni olib borishgan. Natijada sotsiologiyada oila psixologiyasi fani vujudga keldi. Dastavval, bu fanga nisbatan nopisandlik bilan qarash holati kuzatildi. Bunga asosiy sabab esa bu fan mustaqil fan bo'lmaganli uchun uning kelajagi yo'q deb hisoblanishi bo'ldi. Bu holatni quidagi misollar orqali izohlashimiz mumkin: oilada o'tkaziladigan ekspremental metodlarning kamligi, ularning deyarli o'tkazilmasligi va bu nihoyatda qiyin ekanligi, shaxsiy tajribalarning ishonchli emasligi bahona bo'lar edi. Shunga qaramasdan Sharq mutafakkirlari, allomalari, shoir-u fuzalolari o'z ijodida oila masalasiga oid muhim qarashlarni bayon etganlar. Oilani o'rganish qadimdan boshlangan. Buni xalq og'zaki ijodining ertak, doston, she'r va qo'shiqlarida

⁵¹ Konfutsiy ta'limoti.

kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning „ Qutadg‘u bilig “(„Baxtga eltuvchi saodat), Alisher Navoiyning „Mahbub ul-qulub“, Abu Ali ibn Sinoning “Risolayi ishq”, Boburning “Boburnoma”, Ahmad Yassaviyning „ Hikmat” lari, al-Buxoriyning hadislari va shunga o‘xshash ko‘plari asarlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Yusuf Xos Hojibning fikricha, uylanmagan yigitlar oila qurishdan oldin bo‘lajak kelin bo‘lmishning kasb-korini, turmush tarzini, xulq-atvorini, yetti pushtisini surishtirib ko‘rmog‘i kerak.⁵²

Darhaqiqat, ikki yosh ahd-u paymon ila, sevib- sevilib, bir-birini tushinib, otanalar rizoligi asosida bir-birlariga ma‘qul ko‘rilsa, Alloh in‘om etgan buyuk tuyg‘u-muhabbatning qadrlanishi asnosida turmush qurishlari maqsadga muvofiqdir. Oila deya atalmish qo‘rg‘on devorlarining mustahkam bo‘lishi uchun esa yuksak ishonch, o‘zaro hurmat kabi aloqa ko‘priklari mustahkam bo‘lishi lozim. Shu asnoda, Bobur hazratlarining o‘g‘li Humoyun Mirzoga qilgan nasihatlarini eslab o‘tishimiz maqsadga muvofiq bo‘lardi. Hazrat o‘g‘liga oila borasida shunday nasihat qiladi: „ O‘g‘lim, sizga otalik so‘zim, kun kelib uylanishni ixtiyor qilsangiz, zinhor qo‘shxonangizga may birla kirmangiz. In chunun zurriyotlariningiz sog‘lom dunyoga kelgay.⁵³

NATIJALAR

Ko‘rib turganimizdek, oilaga e‘tibor kecha yoki bugun paydo bo‘lib qolmagan, balki asrlar davomida shakllanib kelgan. Yurtimizda oilaga bo‘lgan asosiy e‘tibor 1960-yilning oxiri 1970-yillarning boshlarida yuzaga kelgan. Bunga asosiy sabab esa oilaviy nizolarning avj olishi, ajrimlar sonining asta- sekinlik bilan ortib borishi bo‘ldi. Bunday vaziyatlarda inqirozlar oilaviy muammolarning asosiy ildizi bo‘lib xizmat qiladi. Oilaviy munosabatlar inqirozining bir necha bosqichlari mavjud:

- 1- inqiroz- bir yillik inqiroz bo‘lib, u ko‘pincha yangi turmush qurgan, yosh oilalarda uchrab turadi.
- 2- inqiroz- uch yillik inqiroz deya nomlanib, farzandsizlik va ayol organizmida homilaning hosil bo‘lmasligi bilan kechadigan jarayonlarni qamram oladi.
- 3- inqiroz-to‘ng‘ich inqirozi. Bu asosan oilada birinchi farzand dunyoga kelganda ota-onada kuzatiladigan holatlardan iborat.
- 4- inqiroz- besh yillik inqiroz.
- 5- inqiroz- yetti yillik inqiroz bo‘lib, oiladagi bir xil munosabatlardan zerikish ta‘sirida kelib chiqadi.

⁵² Yusuf Xos Hojibning „ Qutadg‘u bilig “(„Baxtga eltuvchi saodat)

⁵³ Zahiriddin Muhammad Bobur „Boburnoma”

6- Inqiroz- o'n to'rt yillik nikoh davrini qamrab olib, bolaning o'tish davriga, ota-onaning esa o'rta yosh davriga to'g'ri keladi.

7- Inqiroz- farzandlar ulg'ayganda ular bilan sodir bo'ladigan vaziyatlar er va xotin munosabatiga ham ta'sir qiladigan davr.

Yuqoridagi barcha inqiroz turlarida kuzatiladigan salbiy vaziyatlarning kelib chiqish sabablari quidagilardan iborat: moslasha olmaslik, er va xotin oiladagi o'z funksiyalarini yaxshi bilmasligi, ehtiyojlarni o'z vaqtida ayta olmaslik, qoniqmaslik, garmonal o'zgarishlar, farzandsizlik, farzandli bo'lgach ayollarning o'zlariga qaramay qo'yishi, erga nisbatan e'tiborini kam qaratishi, erdan o'zini olib qochish, farzand tarbiyasida erni jalb qilmaslik, oilaviy majburiyatlarning to'g'ri taqsimlanmasligi va boshqalar.

MUHOKAMA

Muammolarning yechimi

Har narsaning ham o'z yechimi bor. Yaratgan mavjudodlar ichida faqat insoniyatnigina choralı-tadbirli qilib yaratgan. Shunday ekan hayotimizdagi kichik nizolardan katta muammolarni yasamasligimiz lozim. Inqirozlarni bartaraf etish uchun ularni qay tarzda kelib chiqishini, sabablarini bilishimiz lozim. Hayotimiz davomida qilgan har bir to'g'ri va noto'g'ri amallarimiz bizga ma'lum bir narsani o'rgatadi, nimagadir imon beradi. Demak, biz yuqorida sanab o'tgan 7 inqirozning bizga beradigan imkoni to'g'risida to'xtalib o'tadigan bo'lsak:

1- inqiroz- Ko'p narsani: aynan yangi turmush qurganlar bir-birlariga moslashishni, tushinishni, oilani qadrlashni, er va xotin funksiyalarini, ehtiyojlarini bemalol, xijolat bo'lmasdan ayta olishni, qoniqish hosil qilishni o'rgatadi.

2- inqiroz-3yillik bo'lib, endi ular bir-birlarini yaxshi bilishi, yoshlikdagi sevgining so'nishi, ehtirosiga to'la „pushti ko'zoynaklarning“ yechilishi tufayli o'rtadagi munosabatlarni buzilishi natijasida, men tanigan, bilgan inson nahotki shu bo'lsa, hayot deganlari shu ekanmi? Deya o'ylamasliklari, afsus qilmasliklari uchun tez-tez dil izhori qilib turishlari, kutilmagan sovg'a sifatida har xil hadyalar in'om etishlari, sevib-sevilib, baxtli yashash imkonini beradi.

3- Inqiroz- to'ng'ich inqirozi bo'lib, bunda bosh farzand tug'ilgach, endi unga ko'proq e'tabor qaratish bilan bir qatorda erga ham o'z navbatida, kerakli o'rinda e'tiborli bo'lishlari talab etiladi. Vaqt ajratishi, suyib erkalashlar, doimo go'zal bo'lib yurishlar, bola parvarish ishlarini birgalikda amalga oshirish, tashqi ta'sirlarni bartaraf etib, oila tinchligini saqlash, hamnafas, hamfikir, hamsuhbat bo'lib yashashlari kerak bo'ladi.

4- Inqiroz- 5 yillik inqiroz bo‘lib, bu davrda oilaviy majburiyatlar taqsimoti to‘g‘ri tashkil qilinmasligi, tushunmovchiliklar, biroz tortishuvlar yuzaga kelganida er bilan tortishmasdan hotirjam gaplashish tavsiya etiladi

5- Inqiroz- bu 7 yillik inqiroz bo‘lib, u bir xillilik deb ataladi. Aynan, bunday vaziyatlarda xiyonat yuz bermasligi uchun, o‘ziga xos yangi his tuyg‘ularni yaratishlari, birgalikda sayohatga chiqishlari, ta‘tillarni o‘tkazishlari muhimdir. Aynan shu maslahatlarga amal qilinsa, ehtimol er va xotin bir- birlariga kerakli ekanliklarini his etishlari mumkin.

6- Inqiroz- 14 yillik nikoh davridir. Bunda bolaning o‘tish vaqti bo‘libgina qolmay, balki ota-onalarda ham o‘rta yosh davridir. Bunday vaqtlarda ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar yomonlashishi ehtimoli uchrab turadi. Ularning vujudga kelmasligi uchun yangi qiziqishlar topish kerak. Ota-ona ham, farzandlar ham bir xil odatiy hayotdan chalg‘igan holda, emotsional holatlarini biroz yengillatib olishlari darkor.

7- Inqiroz- ulg‘aygan farzandlar inqirozi bo‘lib, farzandlar „uchirma“ bo‘lgach, ota-onalar yolg‘iz qoladilar, ularning o‘rtasida begonalik hissi bo‘lmasligi uchun er bilan ayol qaytadan tanishishi, o‘zlari uchun bir-birlarining yangidan yangi qirralarini kashf etishlari kerak. Ushbu gaplarga qo‘shimcha qilgan holda Abu Ali ibn Sinoning Abdulla ibn Ja‘fa tilidan ayollar, qizlar va yosh kelinlarga qilgan quidagi nasihatlarini keltirib o‘tsak: „, Rashkdan saqlangil, chunki u taloqning kalitidir. Senga eringni tanqid qilishni ta‘qiqalayman. Negaki, tanqid nafratni uyg‘otadi. O‘zingni bezab yurgil. Buning uchun eng yaxshi vosita surmadur. Xushbo‘y atirlardan foydalan. Ular orasidagi eng yaxshisi suvdur. Suv-yuza tomonga jilo beradi, qalbni poklaydi.“⁵⁴

Ha rostdan ham har bir inson hayot so‘qmoqlaridan asta sekin yurib borar ekan, yo‘l davomida uchraydigan umr daryosidagi shiddat bilan oqayotgan kuchli oqimlarga, turli to‘fonlarga duch keladi. Ana shu dovullardan eson-omon chiqa olish uchun har bir ayol-u erkak oiladagi o‘z vazifalarini yaxshi bilishi kerak.

Xususan, oilada erning ayoli oldidagi burchlari ikkiga bo‘linadi:

- a) moliyaviy;
- b) muomalaviy;

Mahr berish, nafaqa to‘lab borish, xotinini xotin sharafiga to‘y qilib olib kelish kabi burchlar yuqorida aytib o‘tilgan, erning rafiqasi oldidagi bajarishi lozim bo‘lagan burchlariga misol bo‘la oladi. Xo‘sh, endi ayolning erkak oldidagi burchlari qanday degan savolga javob berib o‘tadigan bo‘lsak, xotin birinchi o‘rinda erga itoat etmoqligi, erining ruxsatisiz nafl ro‘zasini tutmasligi, barcha yumushlarini bajarayotganda eriga

⁵⁴ Abu Ali ibn Sino „, Risolayi ishq“.

nisbatan xushmuomila bo'lishi, eridan ruxsatsiz biror amal bajarmasligi lozim. Bundan tashqari ayol kishi oilada nafaqat xotin rolini, balki kelin rolini ham ijro etishi zarur sanaladi. Demak, kelinlarning oilasi oldidagi burchlari va ular nimalarni bilishi muhim ekanligi to'g'risida:

- Muomala madaniyatini yaxshi bilmoqliklari lozim.
- Shirin taomlar tayyorlay olishi lozim.
- Chevarchilik hunarini egallagan bo'lishi lozim.
- Yangi muhitga, yangi oilagan tezda moslasha olishi kerak.
- Hamshiralik qila olishi juda muhim sanaladi.

Oila masalasiga juda ko'plab olimlar o'zlarining munosabatlarini bildirib, fikrlarini asoslaganlar. Oilaviy masalalar bilan, asosan, psixoteropevtlar oila terapiyasi orqali ish olib boradilar. Bunda ular ham psixologik, ham terapevtik usullardan foydalangan holda, "ko'zgu"ni har ikki tomonga ham yo'naltirib ko'rishadi va vaziyatni mo'tadillashtirib, har bir insonni o'zini-o'zi anglashi uchun zamin yaratib berishadi.

XULOSA

Tan olib aytishimiz kerakki, barchaning oilasida tinch-totuv kunlar bilan bir qatorda notinch kunlar ham, quvonch bilan bir qatorda qayg'uli va qora bulutli kunlar ham bo'lib turadi. Ammo, bunday vaziyatni tinchitish yoki, aksincha, yanada alangalatish shu oila a'zolarining o'z qo'lidadir. Har qanday holatda ham, eng qaltis vaziyatlarda ham ota-onadan talab qilinadigan narsa bu bosqlik, vazminlik, sokinlikdir. Ota-onalar oddiy masala yuzasidan gaplashayotganlarida ham, murakkab vaziyatni tahlil qilayotganlarida ham yonlarida farzandlari bor ekanligini his qilishlari lozim. Sababi, har bir oilada kelajak avlod shakllanib keladi. Ularga rangli va chiroyli hayotni ko'rsatish orqaligina kelajagimiz tinchligini ta'minlashimiz mumkin. Shunday ekan har bir inson o'z oilasida tinchlik deya atalmish muqaddas ne'matni qadriga yetib yashashi lozim. Tinch oilada fayz-baraka ham, baxt-saodat ham ortig'i bilan bo'ladi. Shunday ekan har birimiz baxtli kunlarimizni qadriga yetib yashaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Konfutsiy. Hikmatlar. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent – 2012.
2. Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig" ("Baxtga eltuvchi bilim"). Toshkent, "Fan" – 1971.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". Toshkent, "Yangi asr avlodi" – 2018.
4. Abu Ali ibn Sino. "Risolayi ishq". www.ziyonet.uz